O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

# TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

***Bosh muharrir:*** *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
***Mas'ul muharrir:*** *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
***Mas'ul muharrir o'rinbosari0:*** *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

**T A H R I R  H A Y ' A T I**

***Aniq va tabiiy fanlar:*** *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
***Texnika fanlari:*** *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
***Ijtimoiy-gumanitar fanlar:*** *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
***Pedagogika fanlari:*** *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
***Filologiya fanlari:*** *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

*Texnik muharrir: R.Tursunov*
**Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy**.
***Pochta indeksi:*** 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
***Email***: Info@namspi.uz

*"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi* ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

*Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

**UO'K 175.1**

# O'ZBEK VA BOSHQA TILLARDA TO'Y LEKSIKASINING STILISTIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL-USLUBIY TABIATI

**Lola Uzakova**
katta o'qituvchi, PhD
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti
Email: lola.uzakova.tea@gmail.com

***Annotatsiya***. *Mazkur maqolada to'y leksikasining stilistik xususiyatlari va funksional-uslubiy tabiati o'zbek, ingliz, nemis, fransuz va ispan tillari materiallari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida to'y diskursidagi ekspressivlik va emotiv birliklar (emotiv-indekslar, emotiv-obrazlar, emotiv-ramzlar) badiiy matnlardan olingan misollar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, to'y leksikasi marosimni ifodalovchi neytral birliklar emas, balki sotsiomadaniy normalarni kodlashtiruvchi va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchli stilistik vosita ekanligi asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlari:*** *to'y, stilistik tahlil, to'y leksikasi, ekspressivlik, emotivlar, badiiy diskurs.*

# STYLISTIC FEATURES AND FUNCTIONAL-METHODOLOGICAL NATURE OF WEDDING LEXICON IN UZBEK AND OTHER LANGUAGES

**Lola Uzakova**
PhD Senior Lecturer International Institute of
Food Technology and Engineering
Email: lola.uzakova.tea@gmail.com

***Abstract.*** *This article examines the stylistic features and the functional-stylistic nature of wedding lexis in Uzbek and other languages (English, German, French and Spanish). The study analyzes expressiveness and emotive units (emotive indices, emotive images and emotive symbols) in wedding discourse on the basis of examples drawn from fiction. Furthermore, it substantiates that wedding lexis is not a set of neutral units denoting a ceremony but a powerful stylistic means that encodes sociocultural norms and shapes social consciousness.*

***Keywords:*** *wedding, stylistic analysis, wedding lexis, expressiveness, emotives, literary discourse.*

# СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА СВАДЕБНОЙ ЛЕКСИКИ НА УЗБЕКСКОМ И ДРУГИХ ЯЗЫКАХ

***Лола Узакова, PhD***
Старший преподаватель
Международного института пищевой технологии и инженерии
Email: lola.uzakova.tea@gmail.com

***Аннотация.*** *В данной статье исследуются стилистические особенности и функционально-стилевая природа свадебной лексики в узбекском и других языках (английском, немецком, французском и испанском). В ходе исследования на материале художественных текстов проанализированы экспрессивность и эмотивные единицы (эмотивы-индексы, эмотивы-образы, эмотивы-символы) в свадебном дискурсе. Кроме того, обосновано, что свадебная лексика представляет собой не нейтральные обозначения обряда, а мощное стилистическое средство, кодирующее социокультурные нормы и формирующее общественное сознание.*

***Ключевые слова:*** *свадьба, стилистический анализ, свадебная лексика, экспрессивность, эмотивы, художественный дискурс.*

## KIRISH

To‘y leksikasining stilistik xususiyatlarini tadqiq etish jarayoni tadqiqotchi yoki tarjimon interpretatsiyasining manba matn semantikasi bilan yaqinlashuvini nazarda tutadi. Mazkur jarayon natijasida muallifning o‘ziga xos nutqiy tabiati qo‘llanilgan stilistik vositalar va madaniy-lingvistik omillar bilan uyg‘unlashib, yaxlit sintezni tashkil etadi. Xususan, to‘y leksikasiga oid ekspozitsiv bayon hamda dialogik nutq kompozitsiyasi o‘zaro integratsiyalashgan gibrid janrlarda masalan, lirik-dramatik to‘y folklorida arxaizm va metaforalar, tabrik hamda tilaklar diskursida modallik ifodalovchi so‘zlar, taklifnomalar matnida terminologik va rasmiy leksika, badiiy adabiyotdagi to‘y tasvirlarida esa dialektizm va idiolektlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Mazkur leksik-stilistik qatlamlarni differensial aspektda tadqiq etish zamonaviy filologiyaning ustuvor va dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

K.Malmker o‘zining tarjima stilistikasiga bag‘ishlangan “What happened to God and the angels...” tadqiqotida bir-biridan konseptual farq qiluvchi ikki asosiy yondashuvni ilgari suradi.”[1] “Uslub tadqiqi”/ study of style yondashuvida asosiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

e'tibor semantik mazmundan ko'ra, ko'proq lingvistik shakl hamda strukturaviy-sintaktik qurilishga qaratiladi. To'y leksikasi kontekstida bu marosimiy birliklarning morfologik tarkibi va sintaktik valentligini o'rganishni nazarda tutadi. "Stilistik tahlil"/ stylistic analysis yondashuvida esa muayyan leksik tanlovlarni yuzaga keltirgan kognitiv motivlar va transformatsion jarayonlar tadqiq etiladi. Bunda ekvivalentga ega bo'lmagan milliy-madaniy birliklarning tanlanish sabablari va ularning matndagi pragmatik funksiyasi tahlil markaziga qo'yiladi.

Bundan tashqari, yuqorida qayd etilgan stilistik yondashuvlar asosida to'y leksikasining individual qarorlar qabul qilish jarayonidagi rolini tadqiq etish matnning diskursiv tabiatini fundamental darajada anglash imkonini beradi. Mazkur leksikaning lingvostilistik spetsifikasini dalillashda, tahlil jarayonini bevosita kontekstual xususiyatlar asosida tashkil etish metodologik jihatdan katta ilmiy qiymatga ega.

Shu munosabat bilan, zamonaviy tilshunoslikda badiiy va diskursiv matnlar leksikasini stilistik tahlil qilish muammosi uzoq vaqtdan buyon tilshunos hamda matnshunos olimlar o'rtasidagi fundamental bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Xususan, J.Ostin[2], K.Malmjaer[3], P.Simpson va G.Hol[4], Vidovson[5], J.Eser[6], J.Veber[7], D.Kristal va D.Deivi[8], D.Birchkabi olimlar poetik va ekspressiv leksika o'ziga xos tabiatga ega va u kundalik so'z boyligidan farq qiladi, deb hisoblaydilar.

Yana bir ixtilof tahlilda stilistik metodologiyaning haqliligi bilan bog'liq. To'y leksikasini stilistik bo'yoqlarga e'tibor qaratmasdan, sof lingvistik aspektdagina o'rganish uni shunchaki til birliklarining mexanik majmuasi darajasiga tushirib qo'yadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

To'y leksikasining lisoniy va stilistik tabiatini tadqiq etish, uni nafaqat axborot almashish vositasi, balki adresat idrokini muayyan ijtimoiy maqsadga yo'naltiruvchi murakkab kommunikativ tizim sifatida talqin qilishni taqozo etadi. Mazkur diskurs doirasida qo'llaniladigan lisoniy birliklar tinglovchiga hissiy ta'sir ko'rsatish, uning

estetik va ijtimoiy qarashlarini shakllantirish hamda marosimning pragmatik mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda biz to‘y leksikasining stilistik imkoniyatlarini ko‘rib chiqishda uning fundamental tushunchalaridan biri bo‘lgan ekspressivlik hodisasiga alohida to‘xtalamiz. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan to‘y leksikasining ifodaviyligi va emotsional to‘yinganligi lingvistik, ekstralingvistik hamda stilistik vositalar majmuasi orqali ta’minlanadi.

## NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

To‘y leksikasidagi ekspressivlikning lisoniy tabiati, birinchi navbatda, emotivlar - nutqning hissiy-ekspressiv bo‘yog‘ini yuzaga keltiruvchi leksik-stilistik birliklarning faol qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. To‘y nutqi va matnlarida tinglovchida hissiy rezonans uyg‘otish hamda tantanavor ruhni saqlash maqsadida quyidagi vositalardan keng foydalaniladi: tasviriy vositalar - metafora, epitet, giperbola va oksyumoronlar; sintaktik vositalar: ritorik so‘roqlar, ritorik undovlar va inversiyalar; paralingvistik vositalar: yozma matnlarda grafik urg‘ular masalan, shrift o‘zgarishi, ranglar jilosi, kursiv va nutqiy jarayonda intonatsion urg‘ular. Keltirlgan vositalarning barchasi yaxlitlikda to‘y leksikasining estetik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi E.Vorobyovaning konseptual qarashlariga ko‘ra, “muayyan leksik birlik turli emotsional holatlarni transformatsiya qilish xususiyatiga ega. Emotsiyalar barcha insonlar uchun universal hodisa hisoblansa-da, differensial lingvomadaniy guruhlarda ularning namoyon bo‘lish konstruktlari va me’yorlari farqlanadi hamda ushbu lingvistik spetsifika til sathida to‘liq in’ikos etadi.”[9] Fasl davomida ushbu stilistik vositalarning har biri aniq misollar yordamida tahlilga tortiladi.

Z.Isxakova konsepsiyasiga binoan, “emotivlar matn interpretatsiyasini sotsiomadaniy kontekst bilan bog‘lovchi deiktik markerlar hisoblanadi. Muallif tasnifidagi uchta lisoniy kategoriyani to‘y leksikasi misolida pragmatik jihatdan quyidagicha talqin qilish mumkin: emotiv-indekslar – to‘yning yoki uning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ishtirokchilarining unikal va mutloq xarakterini leksik sathda aniq ko‘rsatuvchi birliklardir.” Masalan: “yagona”, “betakror”, inglizcha: “unrivaled”/tengsiz, Nemischa: “einzigartig”/betakror, fransuzcha: “inégalable”/tengi yo‘q, ispancha“incomparable”/qiyossiz. Emotiv-obrazlar - tinglovchi ko‘z o‘ngida vizual tasavvurlarni shakllantiruvchi semiotik konstruksiyalar masalan, “nurli chehra”, “visol onlari”, “oqshom malikasi”, inglizcha: “blushing bride”/baxsh etilgan emotsiya tufayli yuzi qizargan kelin obrazi, nemischa: “strahlendes Paar”/ nur sochayotgan/baxtiyor juftlik, fransuzcha: “beauté radieuse”/taralayotgan go‘zallik; emotiv-ramzlar - barqaror ijtimoiy normalarni o‘zida aks ettiruvchi madaniy belgilar masalan, “kelinsalom”, “duo”, “nasl davomiyligi”, inglizcha: “wedding vows”[10]/nikoh qasamyodi, nemischa: “Brautbrot”/kelin noni - farovonlik va baraka ramzi, fransuzcha: “échange des alliances”/uzuk almashish marosimi - abadiylik simvoli, ispancha: “las arras” /nikohda almashiladigan 13 ta tanga - moddiy hamjihatlik ramzi. Shuningdek, to‘y diskursida emotivlar ko‘pincha sifatning orttirma darajalari va baholovchi leksika orqali namoyon bo‘lib, marosimning muhtashamligini shakllantiradi. Masalan, nikoh to‘yi marosimidagi nutqlarda “eng baxtli kun”, “ulug‘ ayyom” kabi sifatlashlarning qo‘llanilishi kunning ahamiyatini oshiradi.

Emotiv-obrazlar metafora va epitetlar yordamida marosim jozibasini vizuallashtiradi. To‘y taklifnomalari yoki tabriklarida uchraydigan “ikki qalbning tutashishi” yoki “baxt qasri” kabi birikmalar shunday obrazli emotivlardandir.

Emotiv-simvollar esa, A.Kirilinaning ta’kidlashicha, “takrorlanuvchi andozalar orqali gender rollarini mustahkamlaydi.” O‘zbek to‘y leksikasida erkaklar uchun “oila ustuni”, “xonadon boshlig‘i”, ayollar uchun esa “fayzli uy bekasi”, “ro‘zg‘or farishtasi” kabi turg‘un birikmalar ijtimoiy stereotiplarni aks ettiradi.

Shunday qilib, to‘y diskursidagi ekspressivlik - bu shunchaki hissiy ta’sirni kuchaytirish vositasi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantirishning kuchli stilistik qurolidir. To‘y tili marosim tashkilotchisi yoki so‘zlovchi va ishtirokchi o‘rtasida

vositachi bo'lish bilan birga, mavjud sotsiomadaniy normalarni mustahkamlovchi yoki o'zgarib borayotgan ijtimoiy qarashlarga muvofiq ularni transformatsiya qiluvchi regulyator vazifasini ham o'taydi. Yuqoridagi xulosalarga tayanib, to'y diskursining ijtimoiy ongni shakllantirish va sotsiomadaniy normalarni transformatsiya qilishga xizmat qiluvchi asosiy stilistik vositalari tizimlashtirildi hamda quyidagi qiyosiy 1.1-jadval asosida tahlil qilindi.

1.1-jadval. To'y diskursining ijtimoiy ongni shakllantirish va sotsiomadaniy normalarni transformatsiya qilishga xizmat qiluvchi asosiy stilistik vositalari.

| Kategoriya | Ta'rifi | To'y leksikasidan misol |
|---|---|---|
| Emotiv-indekslar | Mutlaqlik va ustunlikni ifodalaydi | "Often when newly married couples went on the usual round of honeymoon visits, they lingered in some pleasant home until the birth of their second child."[11]/ Ko'pincha, yangi turmush qurgan kelin-kuyovlar to'ydan keyingi odatiy qarindosh-urug' va yaqinlar yo'qloviga chiqishganda, qaysidir yoqimli, fayzli xonadonda ikkinchi farzandlari dunyoga kelguncha qolib ketishardi. |
| Emotiv-obrazlar | Tasavvurda rasm-vizual hosil qiladi | "Hech yanglishmayman, dedi Zaynab, - siz uylanishdayoq uni suyub olg'ansiz, meni bo'lsa... men: ota-onangizning orzularicha, - dedi va ko'ziga jiq yosh oldi."[12] |
| Emotiv-ramzlar | Subyektiv-baholovchi ijtimoiy rollar | "The light-minded woman had been discovering good matches for her daughter almost from the year of her birth."[13]/Ushbu subutsiz ayol qizi dunyoga kelibdiki, unga munosib juft topish ilinjida yurardi. |

Keltirilgan jadvalda to‘y diskursiga xos leksik birliklarning uchta asosiy funksional toifasi ochib berilgan: emotiv-indekslar “newly married couples”, “honeymoon visits” to‘y an’analarining jamiyatdagi barqaror va mutloq o‘rnini ko‘rsatadi. Emotiv-obrazlar A.Qodiriydagi “uylanish”, “ota-onaning orzulari”to‘y konseptini qahramonning ichki kechinmalari bilan bog‘lab, matnda vizual-dramatik manzara hosil qiladi. Emotiv-ramzlar - “good matches” oilaviy rollarni ifodalash bilan birga, “light-minded” epiteti orqali diskursda subyektiv-baholovchi va kesatiqli konnotatsiya kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy diskursda to‘y leksikasi shunchaki marosimni ifodalovchi neytral birliklar emas, balki kuchli emotsional-ekspressiv stilistik vositadir. U matnda sotsiomadaniy normalarni kodlashtiradi masalan, honeymoon/asal oyi, ota-ona orzusi, shuningdek, ijtimoiy rollarga subyektiv baho berib masalan, good matches/yaxshi juft, qahramonlarning ruhiy holatini ramziy obrazlar orqali vizuallashtiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda stilistik tahlil fenomeniga berilgan ta’riflar ko‘p qirrali bo‘lib, ularning mazmun-mohiyati tadqiqot obyekti qamrovining kengligi va interpretatsiya ko‘lamiga bevosita bog‘liqdir[14]. Xususan, taniqli tilshunos D.Kristal stilistik tahlilni “lingvistik variantlilikning muayyan jihatlarini tadqiq etuvchi tilshunoslikning tarkibiy qismi”[15]sifatida tavsiflaydi. Ushbu nuqtai nazardan, stilistik tahlil muallif tomonidan leksik birliklarni saralash hamda sintaktik qurilmalarni shakllantirish jarayonida amalga oshirilgan individual tanlovlarni tizimli o‘rganish va izohlashga yo‘naltiriladi[16]. Zero, yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan uslub muayyan ekspressivlik hamda semantik yukni ifodalashga xizmat qiladi[17].

Lisoniy tanlovning ushbu individual tabiati haqida so‘z yuritganda, Kverk muallif uslubining xosligini inson barmoq izlari singari unikal xarakterga ega ekanligi bilan qiyoslaydi. Binobarin, lingvostilistik tahlil metodologiyasi adabiyotshunoslikdagi ko‘plab bahsli va murakkab muammolarni bartaraf etish imkoniga ega. Yozuvchining

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

lisoniy vositalardan foydalanish spetsifikasi sinchiklab tadqiq etilsa, u ijodkorning estetik konsepsiyasini, fundamental falsafiy-dunyoqarashiy tizimini hamda voqelikni idrok etish modelini uning ijtimoiy kelib chiqishi yoki muayyan adabiy oqimga mansubligi omillariga nisbatan ancha aniqroq va obyektivroq namoyon qila oladi. Umuman olganda, stilistikaning tabiati, uning fanlararo koordinatadagi o‘rni, shuningdek, tadqiqot obyekti hamda lisoniy chegaralari masalalari hamon jiddiy ilmiy diskussiyalar markazida turibdi va bizning ishimizda ingliz, o‘zbek, nemis va ispan adabiyotidan olingan parchalarda to‘y leksikasining stilistik xususiyatlari ko‘rib chiqamiz.

Stilistik tahlil uchun tadqiqot obyekti sifatida J.Ostinning “Emma” romani tanlab olindi. Jahon adabiyotining eng mashhur durdonalari sirasiga kiruvchi ushbu asarda stilistik tahlil uchun g‘oyat mos keladigan badiiy tasvir va ifoda vositalarining mukammal namunalari mujassamlashgan.

Masalan, “How often we shall be going to see them, and they coming to see us! - We shall be always meeting! We must begin; we must go and pay wedding visit very soon.”[18]/Biz ularnikiga, ular esa biznikiga qanchalar tez-tez mehmonga borib turamiz-a! Har doim uchrashib yuramiz! Endi darhol harakatni boshlashimiz kerak; tez kunlarda ularnikiga nikoh to‘yi munosabati bilan tabriklab, mehmorchilikka borishimiz shart. Keltirilgan misolda, “...ularnikiga nikoh to‘yi munosabati bilan tabriklab, mehmorchilikka borishimiz shart” kontekstida “pay wedding visit” iborasi stilistik jihatdan quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi: inglizcha “We must go and pay...” tuzilishi va o‘zbekcha “-ishimiz shart” analitik formasi muallif irodasining qat‘iyligini va ijtimoiy majburiyatning muqarrarligini muhrlaydi. “We must begin” va “very soon” leksik birliklari esa nutqiy aktivlikni va ekspressivlikni maksimal darajaga ko‘taradi. Shuningdek, “pay a visit” turg‘un birikmasida “pay” fe’li birlamchi haq to‘lash ma’nosidan uzoqlashib, ijtimoiy-etiket munosabatini ifodalovchi evfemizmga aylangan. O‘zbekcha tarjimada bu holat oddiy “borish” emas, balki “tabriklab borish/yo‘qlov qilish” kabi funksional-stilistik birikmalar orqali berilgan. Bundan tashqari, “wedding

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

visit" - shunchaki tashrif emas, balki xonadonning yangi ijtimoiy maqomini tan olish va sadoqat izhor etishning madaniy ramzidir va keltirilgan kontekstda sotsiolekt vazifasini bajaradi. Xulosa qilib aytganda, "pay a wedding visit" iborasi Emma ismli personaj nutqini individuallashtirishga, uning yuqori tabaqaga mansubligini va davr etiketini ko'rsatishga xizmat qiladi.

To'ydan oldin bo'lishi mumkun bo'lgan holatni va madaniy namuna sifatidan A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani kontekstidagi parchani ko'rib chiqamiz:

"Xonning sovchilari ikkinchi martaba kelib to'y vaqtini ta'yinladilar: kelasi juma maxdumning uyida to'y ijro qilinib, marosimdan so'ng Ra'no o'rdag'a yuboriladirg'an bo'ldi. To'y vaqti belgilangandan bir kun keyin to'y jamarg'asi ham keldi."[19]

Usbu keltirilgan misolda,"to'y jamarg'asi", "jamarg'a", "jamarg'arilgan narsalar, to'y uchun yig'ilgan mablag', oziq-ovqat yoki kiyim-kechak kabi mollar kompleksi so'zi tarixiy-etnografik xarakterga ega sotsiolektdir. Xon tomonidan Solih maxdum xonadoniga yuborilgan bu "jamarg'a", - shunchaki moddiy yordam emas, balki hukmdor tomonidan nikoh shartining rasmiylashtirilishi va to'y xarajatlarining qoplanishini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy etiket klishesidir. Shu tariqa, ushbu leksik birlik arxaik-tarixiy bo'yoqdorlikka ega bo'lib, XIX asr Qo'qon xonligi davri ijtimoiy hayoti va o'zbek xonadonidagi to'y oldi tayyorgarligi muhitini vizuallashtirishga xizmat qiladi. Buning barobarida, "to'y jamarg'asi keldi" leksik birligi pragmatik sathda chorasizlik va fojiaviy muqarrarlikni ifodalaydi. Chunki bu ashyolar Ra'noning o'z ixtiyoriga qarshi, majburlab O'rdaga olib ketilishining moddiy tasdig'i - fojia signali hisoblanadi.

Qolaversa, turli tizimdagi tillarda to'yga oid leksik birliklarning stilistik va lingvistik tabiati konseptual jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning lisoniy ifodalanishida milliy-madaniy farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Quyidagi misol ham fikrimizni dalillaydi, "Stendalning "Qizil va qora" romanidan olingan parchada "Étrange effet du mariage, tel que l'a fait le XIXe siècle!

L'ennui de la vie matrimoniale fait périr l'amour sûrement, quand l'amour a précédé le mariage. Et cependant, dirait un philosophe, il amène bientôt, chez les gens assez riches pour ne pas travailler, l'ennui profond de toutes les jouissances tranquilles. Et ce n'est que les âmes sèches, parmi les femmes, qu'il ne prédispose pas à l'amour."[20]/ "XIX asr joriy etgan nikoh to'yining g'aroyib oqibati shundan iboratdirki, agar o'zaro muhabbat nikoh to'yidan oldin paydo bo'lgan bo'lsa, oilaviy hayotning zerikarliligi bu sevgini muqarrar ravishda tanazzulga uchratadi. Vaholanki, biror faylasuf aytganidek, oila tez orada mehnat qilishga ehtiyoji bo'lmagan badavlat kishilarda har qanday xotirjam rohat-farog'atdan to'yish va chuqur zerikish hissini uyg'otadi. Ayollar o'rtasida esa, faqatgina his-tuyg'udan mosvo, qalbi quruq ayollargina ushbu muhit ta'sirida taqiqlangan muhabbatga moyillik sezmaydilar, xolos."

Stendalning "Qizil va qora" asaridan tanlangan ushbu parchada "Effet du marriage"/nikoh to'yi oqibati birikmasi markaziy o'rin tutadi. Muallif "effet"/ oqibat leksik birlikning qo'llash orqali nozik ironiyaga tayanmoqda: nikoh instituti odatda baxt keltirishi lozim bo'lsa-da, Stendal uning "g'aroyib oqibati" sifatida sevgini barbod etishini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, matn asosiga kompozitsion antiteza singdirilgan: L'ennui de la vie matrimoniale / oilaviy hayot turg'unligi va l'amour / muhabbat. Bu o'rinda muallif nikohni statik, sevgini esa dinamik tushuncha sifatida muqobillashtiradi. Fransuzcha "L'ennui" tushunchasi o'zbekcha stilistik kontekstda shunchaki "zerikish" emas, balki kundalik turmushning bir xilligi hamda ruhan toliqishni anglatgani bois, u tarjimada "oilaviy hayotning bir xilligi" deb o'girildi. Zero, aynan mana shu turg'unlik tuyg'ularning tanazzulga uchrashiga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, parchadagi yetakchi kontrast va metaforik vosita sifatida "Âmes seches" / qalbi quruqlar iborasini ko'rsatish mumkin. Ushbu tushuncha oliy tabaqa ayollarining hissiyotga berilmaydigan, pragmatik qatlamiga ishora qiladi. Matn xotimasidagi muallif pichingiga ko'ra, ijtimoiy tizim shunday nomutanosiblikka

qurilganki, faqatgina hissiyotdan mahrum, "qalbi quruq" ayollargina amaldagi nikoh doirasida qola oladilar; barcha tirik va his qiluvchi qalblar esa ushbu zerikarli muhitdan qochib, tashqaridan chinakam muhabbat izlashga majbur bo'ladi.

**XULOSA**

Pirovardida shuni ta'kidlash lozimki, zamonaviy tilshunoslikda stilistik tahlil fenomeniga berilgan ta'riflar ko'p qirrali bo'lib, ularning mazmun-mohiyati tadqiqot obyekti qamrovining kengligi va interpretatsiya ko'lamiga bevosita bog'liqdir. Xususan, to'y leksikasining lingvostilistik spetsifikasini ochib berishda tadqiq etish jarayonini bevosita kontekstual xususiyatlar asosida tashkil etish metodologik jihatdan ulkan ilmiy ahamiyatga ega. Zero, badiiy diskursda to'y leksikasi shunchaki marosimni ifodalovchi neytral birliklar emas, balki kuchli emotsional-ekspressiv stilistik vositadir. U matnda sotsiomadaniy normalarni kodlashtiradi masalan, honeymoon/asal oyi, ota-ona orzusi, shuningdek, ijtimoiy rollarga subyektiv baho berib masalan, good matches/yaxshi juft, qahramonlarning ruhiy holatini ramziy obrazlar orqali vizuallashtiradi. Shu nuqtai nazardan, to'y diskursi ijtimoiy ongni shakllantirish va lingvomadaniy qadriyatlarni transformatsiya qilishga xizmat qiluvchi asosiy lingvistik platformalardan biri hisoblanadi. Pirovardida shuni ta'kidlash lozimki, to'y leksikasining stilistik o'ziga xosliklarini tadqiq etish jarayoni tadqiqotchi yoki tarjimon talqinining manba matn semantikasi bilan to'liq muvofiqlashishini taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Malmkjaer K. What happened to God and the angels: an exercise in translational stylistics. Target 15 (1). Amsterdam: John Benjamins, 2003. DOI: 10.1075/target.15.1.03mal P.37-58.
2. Austin J.L. How to do things with words. Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1962. – P.166
3. Malmkjaer K. Stylistics.The Linguistic Encyclopedia. Ed. by K. Malmkjaer. London: Routledge, 1991.
4. Simpson P., Hall G. Discourse analysis and stylistics. Annual Review of Applied Linguistics, 2002. – Vol. 22. – P. 136-149.
5. Widdowson H.G. Stylistics: An approach to stylistic analysis. The Stylistics reader: From Roman Jakobson to the Present. Ed. by J.J. Weber. New York: Arnold, 1996. – P. 138-148.
6. Esser J. English Linguistic Stylistics. Tubingen: M. Niemeyer, 1993

7. Weber J.J., Ed. The Stylistics Reader: From Roman Jakobson to the Present. New York: Arnold, 1996. – 312 p.
8. Crystal D., Davy D. Investigating English style. London: Routledge, 2016. – 264 p.
9. Воробьева Е.Ю. Роль когнитивной метафоры в процессе вербализации эмоций (на материале французского языка). Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2025. – Т. 28. – № 1. – С. 52–65.
10. Исхакова З.З. Эмотивно-дейктическая константа в семиосфере: монография. – Москва: ФЛИНТА: Наука, 2014. – 352 с.
11. Mitchell M. Gone with the Wind. Global Grey, 2021. – P. 101.
12. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 176 б.
13. Hardy T. Tess of the d'Urbervilles. London: James R. Osgood, McIlvaine and Co., 1891. – P. 88.
14. Crystal D., Davy D. Investigating English style. London: Routledge, 2016. – P.152
15. Crystal D., Davy D. Investigating English style. London: Routledge, 2016. – P.154
16. Кривчикова Н.Л., Котенева И.А., Седых А.П., Трещева Н.В. Стилистические характеристики законодательного текста. Journal of Language and Literature. – Баку, 2015. Vol. 6. No. 2. – С. 188.
17. Khan A.B., Ahmad M., Ahmad S., Ijaz N. Stylistic analysis of the short story "The Last Word" by Dr. A.R. Tabassum. Advances in language and literary studies. – Australia, 2015. Vol. 6. No. 3. – P. 10.
18. Austen J. "Emma". - Ffie publishing house, 2025. – P 3.
19. Қодирий А. Меҳробдан чаён: (Худоёрхон ва муншийлари ҳаётидан тарихий роман). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б.116
20. Stendhal "Le Rouge et le Noir". - La Bibliothèque électronique du Québec, Collection À tous les vents. – P.350